



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH  
VAZIRLIGI TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
REKTORINING  
BUYRUG‘I**

2023 yil “6” aprel 00344 - son

**Xalqaro olimpiadada Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalarining  
ishtirokini ta’minlash to’g’risida**

Toshkent davlat stomatologiya institutida 2023-yil 7-8 aprel kunlari o‘tkaziladigan “Tibbiyot va innovatsiya” nomli talabalar Xalqaro olimpiadasida (keyingi o‘rinlarda – Xalqaro olimpiada) Toshkent tibbiyot akademiyasi (keyingi o‘rinlarda – TTA) talabalarining ishtirokini ta’minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. 2023-yil 7-8 aprel kunlari o‘tkaziladigan Xalqaro olimpiadada mazkur buyruq ilovasida nomlari ko‘rsatilgan 13 nafar akademiya talabalarining ishtiroki ta’minlansin.
2. O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, barcha fakultet dekanlari va kafedra mudirlariga:
  - mazkur buyruqning ilovasida nomlari ko‘rsatilgan Xalqaro olimpiadada ishtirok etayotgan TTA talabalar joriy yilning 7-8 aprel kunlari darsdan ozod qilinsin va ularga o‘rtacha baho (ball) qo‘yib berilsin.
3. Xalqaro olimpiadada talabalar ishtirokini ta’minlash bo‘yicha mas’ul etib Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i F.B.Abdumalikova belgilansin.
4. Mazkur buyruqning ijrosini ta’minlash Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova zimmasiga yuklatilsin.

**Rektor**



**A.Shadmanov**

**Buyruq kelishuvi**

**Tayyorladi:**  
**F.Abdumalikova**

**Bo'lim boshlig'i**

**Kelishildi:**

**Sh.Boymuradov**

**O'quv ishlari bo'yicha prorektor**

**F.Azizova**

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar  
bo'yicha prorektor**

**B.Xalmatova**

**Dekan**

**A.Irnazarov**

**Dekan**

**A.Xamraev**

**Kafedra mudiri**

**F.Salomova**

**Dekan**

**Sh.Islomqulova**

**Yuriskonsult**